

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINI BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA TEMURIYLAR DAVRI MA'NAVY MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol etib tarbiyalashda Temuriylar davri ma'naviy merosining pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Temuriylar davri Sharq uyg'onishining yuksak bosqichi sifatida ilm-fan, ma'rifat, adabiyot va madaniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan ilg'or pedagogik g'oyalarning shakllanishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari asosida barkamol shaxs tarbiyasining mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, pedagogika, ma'naviyat, barkamollik, komillik, qadriyat, ma'rifat, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ В ВОСПИТАНИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ МОЛОДЁЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется педагогическое значение духовного наследия эпохи Тимуридов в воспитании гармонично развитой молодёжи Нового Узбекистана. Эпоха Тимуридов, являясь высшим этапом Восточного Ренессанса, имеет особое значение не только благодаря развитию науки, просвещения, литературы и культуры, но и благодаря формированию передовых педагогических идей, направленных на воспитание всесторонне развитой личности. В статье раскрывается сущность и содержание воспитания гармонично развитой личности на основе духовно-нравственных взглядов Амира Темура, Алишера Навои, Хусейна Воиза Кашифи, Абдурахмана Джамии и других мыслителей.

Ключевые слова: воспитание, педагогика, духовность, гармоничное развитие, совершенство личности, ценности, просвещение, патриотизм, гуманизм, справедливость.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE TIMURID ERA IN EDUCATING A WELL-ROUNDED YOUNG GENERATION IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article scientifically examines the pedagogical significance of the spiritual heritage of the Timurid era in educating a well-rounded young generation in New Uzbekistan. As the highest stage of the Eastern Renaissance, the Timurid period is distinguished not only by remarkable achievements in science, education, literature, and culture but also by the development of advanced pedagogical ideas aimed at fostering a morally mature and comprehensively developed individual. The article explores the essence and content of educating a well-rounded personality based on the spiritual and ethical views of Amir Temur, Alisher Navoi, Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jami, and other prominent thinkers.

Keywords: education, pedagogy, spirituality, holistic development, personal excellence, values, enlightenment, patriotism, humanism, justice.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan hamda ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri

56 hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish hamda ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xalqimizning boy tarixiy-ma'naviy merosi, xususan, Temuriylar davrida shakllangan pedagogik va ma'rifiy qarashlar muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at taraqqiyotining yuksak bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur davrda yaratilgan ma'naviy meros inson kamoloti, axloqiy yetuklik, ilm-ma'rifatga intilish, adolat va insonparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Amir Temur va temuriy hukmdorlar tomonidan ilm ahli, olimlar, mutafakkirlar va ijodkorlarga yaratilgan qulay sharoitlar natijasida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma'rifat va tarbiya masalalari ilgari surildi. Natijada barkamol insonni voyaga yetkazishga qaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy meros shakllandi.

Temuriylar davrida yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlar — Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalarning asarlarida yoshlarni tarbiyalash, ilm olishga rag'batlantirish, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish hamda komil inson fazilatlarini shakllantirish masalalari keng yoritilgan. Ushbu qarashlar o'z davrining pedagogik tafakkurini boyitish bilan birga, bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va barkamol avlodni voyaga yetkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa Temuriylar davri ma'naviy merosida mujassam bo'lgan pedagogik g'oyalarni zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan uyg'un holda o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, yoshlar ongida vatanparvarlik, ma'rifatarparvarlik, mas'uliyat, adolat va insonparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishda tarixiy merosning tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi Temuriylar davri ma'naviy merosining pedagogik mazmun-mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalarni tahlil qilish hamda ularning Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va pedagogik yondashuv metodlari asosida Temuriylar davri ma'naviy merosining zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni va imkoniyatlari yoritiladi. Shu jihatdan, maqola tarixiy-pedagogik merosni zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanish sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davri ma'naviy merosi va barkamol shaxs tarbiyasi masalalari ko'plab tarixchi, adabiyotshunos hamda pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va Abdurahmon Jomiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy g'oyalar yoshlar tarbiyasining muhim pedagogik asoslari sifatida baholangan.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv hamda manbashunoslik metodlari asosida Temuriylar davri ma'naviy merosining Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol etib tarbiyalashdagi pedagogik ahamiyati o'rganildi.

Muzokara. Temuriylar davri ma'naviy merosining Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol etib tarbiyalashdagi pedagogik ahamiyatiga oid manbalar va ilmiy tadqiqotlar tizimli tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hamda tarbiyaviy g'oyalar qiyosiy jihatdan klassifikatsiya qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davri ma'naviy merosi yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan boy pedagogik g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu davr mutafakkirlarining asarlarida ilm-ma'rifat, axloqiy poklik, adolat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar komil insonni shakllantirishning asosiy mezonlari sifatida talqin etilgan. Mazkur g'oyalar bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan hamohangdir.

Temuriylar davrida shakllangan pedagogik qarashlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Mutafakkirlar fikricha, insonning

jamiyatdagi o'zni uning axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi. Shu sababli tarbiya jarayonida adolat, halollik, insonparvarlik, kamtarlik, saxovat, sabr-toqat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifa sifatida qaralgan. Bu davr pedagogik merosining yirik namoyandalaridan biri Alisher Navoiy hisoblanadi. Uning asarlarida inson kamoloti masalasi markaziy o'rin egallaydi. Navoiy insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida ko'rib, uning ma'naviy yetukligi ilm va axloq uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. U "komil inson" tushunchasini rivojlantirib, inson faqat bilim bilan emas, balki ezgu xulq-atvor bilan ham yuksalishini asoslab beradi. Husayn Voiz Koshifiy ham Temuriylar davri pedagogik tafakkurining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning asarlarida axloqiy tarbiya tizimli ravishda yoritilgan. Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarida insoniy fazilatlarni tasniflab, adolat, rostgo'ylik, sadoqat, mardlik va mehr-oqibatni jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida ko'rsatadi. U tarbiyani inson shaxsining shakllanishidagi eng muhim omil deb hisoblaydi.

O'rta asr Sharqida axloq fanining rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Jaloliddin Davoniy (1427—1502 y.y.)dir. U axloq fanining predmeti va vazifalarini belgilashda Arastu ta'sirida bo'ladi. Axloq fani deganda, mutafakkir kishilarning xulq-odobi va fazilatlarni o'rganuvchi fanni tushunadi. Ushbu fan amaliy xarakterga ega bo'lib, u kishilarning kundalik hayotida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilishi lozim. Davoniyning fikricha, kishilarning xislatlari tabiiy (tug'ma) va yashash davomida shakllanadigan hislatlarga bo'linadi. Ushbu masalada u Forobiy va Tusiyning fikriga qo'shiladi. Davoniy xuddi Forobiy singari, tug'ma xususiyatlarga kishilarning ba'zi bir aqliy va axloqiy malakalari: zehn o'tkirligi, faraz qilish qobiliyati, hamfikirlik va boshqalarni kiritadi. Mutafakkir kishilarning ba'zi tug'ma-xususiyatlari va qobiliyatlarini tan olsa ham, yashash davomida qo'lga kiritiladigan malakalarni inson uchun muhim, deb hisoblaydi. Zero, inson yoshligidan tashqi muhit va boshqalarning ta'sirida barcha xislatlarni egallay boradi. Davoniyning fikricha, bola dunyoqarashining shakllanishida tashqi muhit va uning tevarakatofidagi odamlar muhim rol o'ynaydi. Tashqi muhit ta'sirida bola faqatgina atrof-muhitni kuzatibgina qolmasdan, balki yaxshi yoki yomon malakalarni hosil qila boradi. Davoniy kishilarni bola tarbiyasida juda ehtiyot bo'lishga chaqiradi, chunki ular yoshligida o'ta ta'sirchan bo'ladi, yaxshi va yomonning farqiga bormasdan qabul qilaveradi. "Bola qalbi, deb ta'kidlagan edi u, toza taxtaga o'xshaydi, unga har qanday tasvirni osonlikcha chizish mumkin". Uning aytishicha, tug'ilganda bola qalbi toza taxtani eslatadi. Ruhiy holati (psixikasi) esa yashash jarayonida to'ldirib boriladigan bir varaq oq qog'ozga o'xshaydi. Bola tarbiyasida maktabning roli muhimdir. O'qituvchi aqli, bola tarbiyalashda qobiliyatli bo'lishi lozim. Davoniy o'qituvchini sevishga, hurmat qilishga chaqiradi va uni ma'naviy ota deb hisoblaydi. Davoniy yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish masalasiga ham o'z e'tiborini qaratadi. Bolalarni o'qitishda, ularning qobiliyatini hisobga olish zarur. Agar bola biror kasb-hunarga qiziqsa, shu ixtisosni egallashi uchun unga sharoit yaratib berish kerak. "Hamma mavjud kasb-hunarlarga kishining qobiliyati bo'lmaydi, aksincha har bir odam muayyan bir hunarga qiziqadi. Buning zaminida bir sir yashirilib yotadi. Bu sirning sababi dunyoning mavjud bo'lishi va kishilar turmushini tartibga solib turishdir", deydi Davoniy. Bitta hunar bilan qiziquvchi odam, o'zining butun qobiliyati va e'tiborini shu kasbni egallashga qaratadi.

Temuriylar davri pedagogik qarashlarida ilmga munosabat ham alohida o'rin tutadi. Ilm insonni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Mutafakklilar ilm olishni faqat kasb yoki bilim orttirish vositasi emas, balki axloqiy kamolotga erishish yo'li sifatida ko'rganlar. Shu sababli ustoz-shogird an'analari, ta'limda odob qoidalari va ilmga hurmat g'oyalari keng rivojlangan. Shuningdek, Temuriylar davri pedagogik tafakkurida vatanparvarlik va jamiyatga xizmat qilish g'oyalari ham muhim o'rin egallaydi.

Temuriylar davri ma'naviy merosining yana bir yirik vakili Abdurahmon Jomiy hisoblanadi. Jomiy o'z asarlarida komil inson tarbiyasini tasavvufiy qarashlar bilan bog'laydi. U insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tiyish, sabr-toqat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirishni ma'naviy kamolotning muhim bosqichlari deb hisoblaydi. Jomiyning pedagogik qarashlarida insonning o'z ustida ishlashi va doimiy ravishda ma'naviy takomillashib borishi komillikka erishishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Temuriylar davri adabiy merosida ilm

va ma'rifat alohida qadriyat sifatida ulug'lanadi. Bu davr mutafakkirlari jaholatni jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omil deb baholaganlar. Shuning uchun yosh avlodni ilm olishga rag'batlantirish, ustozga hurmat va bilimga intilish g'oyalari adabiy asarlarning asosiy mavzularidan biriga aylangan. Ilm insonni ma'naviy yetuklikka olib boruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, Temuriylar davri adabiy merosida vatanparvarlik, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari ham komil inson tarbiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Inson o'z xalqiga, yurtiga va jamiyatiga foyda keltirishi, ezgu ishlari bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu qarashlar o'sha davrda shakllangan ma'naviy qadriyatlarning yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, oilaviy tarbiya masalalari ham Temuriylar davri adabiy merosida muhim o'rin egallaydi. Ota-onaga hurmat, kattalarni e'zozlash, kichiklarga mehribon bo'lish, oilada o'zaro hurmat va mas'uliyatni shakllantirish komil inson tarbiyasining dastlabki bosqichi sifatida talqin qilinadi. Mutafakkirlar oilani ma'naviy kamolot maktabi deb baholaganlar.

Temuriylar davrida ilm-fanga oid barcha sohalar rivojlandi. Qolaversa, madaniyat, mu'naviyat, axloq labi yuksak fazilatlar ulug'landi. Ushbu davrda ijod etgan mutafakkirlar axloqning, ma'naviyatning inson hayotidagi o'rni nechog'lig ahamiyatli ekanini har jabhada namoyon etadi. Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va temuriylar davri mutafakkirlarining shoh asarlari, pandnomalari, axloqiy ta'limotlarining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada ana o'sha Temuriylar davri mutafakkirlarining yoshlarni o'z vataniga muhabbat, sadoqat, vatan himoyasida jonkuyarlik ruhida, qolaversa yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda qo'shgan hissalar haqida fikr yuritiladi. Temuriylar davrida yaratilgan adabiyot tasavvufning adabiyoti darajasini belgiladi. Adabiyot tasavvufning g'oyaviy mazmunida ilohiy masalalarni qamrab olib umuminsoniy tafakkurni ifodaladi. Hozirgi zamon fani Amir Temur va temuriylar davrini haqiqiy renessans Uyg'onish davri deb e'tirof etmoqda. Zero, bu davrda o'tmish davrlar tajribalarini jodiy o'zlashtirishga va yangicha yondashuvlarga, olimlar, me'mor va hunarmandlar, mifaturachi rasmlar, davr tomosha san'at vakillari oldida bergan masalalari hal etishda jiddiy yangiliklar kiritishga asoslangan eng yaxshi an'analar tiklandi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ma'naviy merosi barkamol shaxs tarbiyasi masalalarini yoritishda boy pedagogik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr mutafakkirlari va adiblari tomonidan ilgari surilgan ilmparvarlik, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va ma'naviy yetuklik g'oyalari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi muhim tarbiyaviy omillar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davri ma'naviy merosida aks etgan pedagogik qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolganligini ko'rsatdi. Temuriylar davri ma'naviy merosi Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol etib tarbiyalashning muhim pedagogik asosi bo'lib, undan samarali foydalanish ta'lim tizimining ma'naviy-tarbiyaviy salohiyatini yanada yuksaltirishga, intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur merosni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiq etish va ta'lim amaliyotiga keng joriy etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богатов В.В. Этика в научной деятельности // Вестник ДВО РАН. 2008. № 1. С. 144 – 157.
2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008. 288-b.
3. Kenjayeva S.N. Temuriylar davriga oid pedagogik asarlarda axloq masalalari // European science international conference: Modern problems in education and their scientific solutions. [Vol. 3 No. 3 \(2026\)](#) . 347-349-b.

4. Kenjayeva S.N. Temuriylar davri adabiy merosida komil inson tarbiyasi masalalari // Global Academic Conference on Research and Innovation. Volume 2, Issue 4 GACRI 2026/ New York/The Usa. 54-57-b.
5. Kenjayeva S.N. Temuriylar davri pedagogik tafakkurida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'rni // International Conference on Contemporary Research ICCR-2026. 96-99-b.
6. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Ishonchli hamkor», 2021. - 272 b.
7. Roziqov O. R. va boshqalar. Didaktika. T., "Fan", 1997, 111-b.
8. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. –Toshkent, 2016. – 314 b.